

**O'ZBEK TILI DARSLARINI TASHKILLASHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS AFZALLIKLARI  
YUZASIDAN USLUBIY TAVSIYALAR**

*Djurayeva Muyassarxon Sadriddinovna*

*Farg'ona viloyati Farg'ona tumani*

*3-sonli o'rta ta'lim maktabi*

*o'zbek tili fani o'qituvchisi*

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari bilan uzviy bog'liq. O'zbek tilining jozibasi momolarimiz allasi, maqomlarimiz, ertak va afsonalarimiz, roman-u dostonlarimizning sehri satrlarida, jiloli ohanglarida aks etgan. Tarixga nazar solsak, buyuk ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytgan hamda nodir ma'naviy meros, qadriyatlarimizga asos solganligiga guvoh bo'lamiz.

Jasur va matonatli xalqimiz har qanday zulm va zo'ravonliklarga qaramasdan, o'z ona tilini — milliy g'ururini saqlab qoldi. Qanchalik og'ir bo'lmasin uni rivojlantirib, bugungi avlodlarga bezavol yetkazib berdi.

Ushbu qutlug' ayyom, 1989-yil 21-oktyabr sanasi — “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kun ma'naviy jasorat, ezgu maqsadlar ro'yobi bo'lgan kunligi bilan ahamiyatlidir. Ilm-fan, texnika aqlbovar qilmas darajada rivoj topganiga qaramasdan, dunyo hamjamiyati sayyoramizda nechta til borligi haqida aniq ma'lumotga ega emas. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo tillarining soni 7 mingdan oshadi. Mazkur tillardan 14 tasida insoniyatning uchdan ikki qismi gaplashadi. Ushbu tillarning har birida so'zlashadiganlar soni esa 50 milliondan ziyod. Dunyodagi 70 tilda gaplashadiganlar 5 milliondan ko'p bo'lsa, qolgan tillarda muloqot qiladiganlar 1 milliondan kam.

Ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda o'zbek tiliga davlat tili maqomini huquqiy jihatdan muhrlab bergan mazkur qonunning xalqimiz hayotidagi o'rni beqiyosdir. Bunday nufuzga ega bo'lgan o'zbek tili asrlar sinovidan o'tgan, qiyomiga yetgan va boshqalarga ibrat bo'la oladigan til sanaladi. Bugun O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan siyosat buni amalda ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizning Asosiy qonuni — Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi uning nufuzini yana-da yuksaltirdi. Yurtimiz bo'ylab va xalqaro maydonlarda ona tilimizda yangrayotgan Davlat madhiyasi ham qalblarimizda Vatan tuyg'usini jo'sh urdiradi. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy

ta'kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti — bu uning milliy tili va adabiyotidir.

O'zbek tili davlat tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda faol qo'llanmoqda, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. O'zbek tilining chinakam jonkuyarlari xotirasiga bag'ishlangan yodgorliklar majmuasi Adiblar xiyoboni farzandlarimizning go'zal tarbiyalarida, ma'naviy, axloqiy ahamiyatga egadir. Dunyoga nazar solsak, o'zbek tili rivojlangan bir necha davlatlarining 60 ga yaqin universitetlarida va 100 dan ziyod maktablarida o'rganilib kelinayotgani quvonarli xoldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoniga binoan “Davlat tili haqida” gi qonun qabul qilingan kunning ulkan tarixiy o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, 21-oktyabr sanasi yurtimizda “O'zbek tili bayrami kuni” deb belgilanishi xalqimizning milliy ruhi va g'ururini yuksaltirish bilan birga, davlat tilini hayotimizda to'laqonli joriy etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim rus, tojik, qirg'iz va qoraqalpoq kabi boshqa millat tillarida olib boriladigan o'quvchilar uchun Davlat tili ya'ni o'zbek tilining o'qitilishi bugungi kunda O'zbekistonning davlat tili saviyasining yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Darslarni zamonaviy va interfaol metodlar asosida tashkillash bugungi kunda ta'lim jarayonining dolzarb masalalaridan hisoblanayotganligi siz-u bizga sir emas. Barcha fanlar kabi o'zbek tili darslarini ham zamonaviy usulda tashkillash uchun fan o'qituvchilari uchun quyidagi interfaol metodlarni tavsiya qilgan bo'lar edik.

“Tarjima qilaylik” metodidan mavzuga oid so'zlaarni yod olish, o'tilgan yangi mavzuni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashda foydalanish mumkin. O'quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o'quvchilar uning tarjimasini yozishadi.

“Bo'laklarni tiklash” metodi. Bu metodda o'qish darslarida she'r, topishmoq, maqollarni eslab qolish malakasini tekshirish uchun foydalaniladi. She'r, topishmoq, maqol matni bo'laklarga bo'linib, o'quvchilarga aralash holda beriladi. O'quvchilar bo'laklarni tiklab, sinf doskasiga qo'yilgan ko'rgazma taxtasiga yopishtirishadi.

FSMU texnologiyasi. Bu texnologiyadan foydalanishda o'qituvchi har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bunda:

F - fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;

M - ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring;

U - fikringizni umumlashtiring.

O'qituvchi o'quvchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi.

Yakka tartibdagi ish tugagach, o`quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o`qituvchi kichik guruhlarga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog`ozlarni tarqatadi.

Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog`ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo`yicha yozishlari taklif etiladi.

“Kim epchil-u kim chaqqon” metodidan siyosiy xarita bilan ishlash davomida o`quvchilardan 3 kishi sahna markaziga, xarita yoniga chaqiriladi. Topishlari uchun davlat poytaxt nomlari aytiladi. Qaysi o`quvchi birinchi topsa, unga rag`bat kartochkasi beriladi.

“T-chizma” metodida ma`lum bir masalani ikki tomonlama taqqoslash asosida tahlil qilish usulidir. Juft (ijobiy/salbiy; ha/yo`q; rozi/qarshi kabi) javob yoki taqqoslashlarni qayd etuvchi serqirra yozma ishni tashkil etishda ko`maklashuvchi usuldir.

“Tushunchalar tahlili”, “Ustunchalar”, “Bo`laklarni tiklash”, “To`g`ri-noto`g`ri”, “Ha yoki yo`q”, “FSMU” va boshqalar. Bu metodlarni har bir darslarda foydalanib borish orqali o`tilgan va yangi mavzularni mustahkamlash mumkin.

Til — millatning ko`zgusi bo`lib, unda tarix - o`tmish va kelajak jonlanadi. Ma`lumki, eng katta xiyonat e`tiqodga bo`lgan xiyonatdir. Bizning e`tiqodimizning uzviy bir jihati ham tilimizga bo`lgan e`tiborimiz bilandir. Ona tilimiz yurtimizdagi qadim va muqaddas, mo`jizaviy buloqlardek toza va musaffo, iste`molga doim yaroqli bo`lishi shart. Uning ichki imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Ona tilimizning tabiiyligi uchun kurashish, og`zaki va yozma nutqda til me`yorlariga rioya qilish, uning tarovatini saqlab qolish barchamizning eng muqaddas va sharafli burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o`qitish metodikasi. Toshkent “Noshir” nashriyoti, 2009, 351.
2. Yo`ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta`limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.
3. Internet materiallari : <http://go.mail.ru/searchi?>
4. Avazjon o`g`li, V. D., & Esonali o`g`li, M. Y. (2022). Use and Importance of Three-Dimensional Images in Fields. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 1-4.
5. G`ofurovich, T. X. A., & Esonali o`g`li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 2(2), 9-13.